

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI

**Ahmadjonova Shahlo**

*O‘zDJTU ‘xorijiy til va adabiyoti’ fakulteti talabasi*

**Bazarov Ixtiyor**

*O‘zDJTU 3-ingliz tili fakulteti dekani*

**Annotatsiya:** *Ingliz tili global muloqot tili sifatida butun dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish yosh avlodni zamonaviy dunyoga moslashtirishdagi asosiy vositalardan biridir. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda bolalarga ingliz tilini o‘qitishning samarali metodikasi, yondashuvlari va tavsiyalari haqida so‘z yuritamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *kommunikatsiya, psixologik va pedagogik rivojlanish, interaktiv yondashuv, rag‘batlantirish, integratsiya, motivatsiya, axborot-texnologiyalari.*

**Annotation:** *English is becoming important as a global communication language. Teaching English in primary grades is one of the main ways of adapting children to the modern world. In this article, you will be acquainted about tips, methods and ways of effective teaching in primary grade pupils.*

**Keywords:** *communication, psychologic and pedagogic development, interactive way, praising, integration, motivation, information technologies.*

**Аннотация:** *Английский как язык глобального общения все большее значение во всем мире. Обучение этому в начальных классах является одним из основных средств адаптации молодого поколения к современному миру. В этой статье мы поговорим об эффективных методах, подходах и рекомендациях по обучению английскому языку детей в начальных классах.*

**Ключевые слова:** *коммуникация, психологическое-педагогическое развитие, интерактивный способ, восхваление, интеграция, мотивация, информационные технологии*

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki u nafaqat xalqaro muloqot tili, balki ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida yetakchi kommunikatsiya vositasidir. Shu sababli O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ingliz tilini o‘rgatish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning kichik yoshdan boshlab til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarning psixologik va pedagogik rivojlanishida asosiy davr hisoblanadi. Ushbu davrda o‘quvchilar asosan o‘yinlar, musiqalar va harakatlar orqali bilimlarni o‘zlashtirishga moyildirlar. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitishda yoshga mos va interaktiv

yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til o'rganish jarayonini qiziqarli va rag'batlantiruvchi qilib tashkil etish tilga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich bosqichda o'rgatiladigan ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. O'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish o'quvchilarning to'liq lingvistik kompetansiyasini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish o'quvchilarning yoshiga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu bosqichda darslarni qiziqarli va oson o'zlashtiriladigan tarzda tashkil etish muhim. Quyida metodik asoslarning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi:

- Yosh xususiyatlariga mos metodika

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faollik, qiziquvchanlik va ijodiy o'rganish jarayonlariga moyildirlar. Shuning uchun o'qitishda o'yin elementlari (rolli o'yinlar, harakatlari o'yinlar, kartochka) va tasviriy materiallardan (rasmlar, turli xil ko'rgazmalar) keng foydalaniladi. Shuningdek, bolalarning qisqa muddatli diqqatini e'tiborga olgan holda, mashg'ulotlar kichik bo'laklarga bo'lib o'tkaziladi.

- Kommunikativ yondashuv

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni oddiy va kundalik muloqotga tayyorlashdan iborat. Kommunikativ yondashuv tabiiy muloqotga asoslangan topshiriqlar (salomlashish, o'zini tanishtirish, so'rov savollari) hamda real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi mashqlar (do'konda xarid qilish, yo'l so'rash) dan tashkil topadi.

- Ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish

Bolalarda o'qish, yozish, gapirish va tinglash ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish zarur. Bunda, so'z boyligini oshirish uchun yangi so'zlarni o'yinlar orqali takrorlash, tinglash va gapirish mashqlari uchun multfilmlar yoki qo'shiqlardan foydalanish, yozishni orgatish uchun oddiy va qisqa jumlalar yozish ("My name is...") kabi metodlardan foydalanish mumkin.

- Motivatsiyani oshirish

Yosh bolalarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, ular erishayotgan muvaffaqiyatlarini tan olish va maqtash orqali doimiy rag'batlantirib turish lozim. Yoki yaxshi baholar, stikerlar, chiroyli ruchka, daftar kabi kichik sovg'alar berish ham ularni motivatsiyasi bilan birgalikda darslarga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Dars jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishda texnologiyalar katta yordamchi vositasi hisoblanadi. Shuning uchun, turli xil onlayn platformalardan foydalanish qo'l keladi. Bularga misol qiladigan bo'lsak, "Quizlet", "Kahoot" kabi platformalar foydalanish uchun anchagina qulay.

- Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish

Ingliz tilini o‘qitish davomida shu tilda so‘zlashuvchi davlatlarning madaniyati va an’alarini o‘rgatish muhim . Ayniqsa, ingliz xalq ertaklari va qo‘sishlarini o‘rgatish bolalarda o’sha davlatga nisbatan tasavvurni shakllantiradi . Shu bilan birgalikda, madaniy tadbirlarni (“Christmas”, “Halloween”) ham yoddan chiqarmaslik kerak chunki , ularni o‘tkazish jarayonida bolalarning fikrlash qobiliyati va dunyoqarashi ham oshadi.

Boshlang‘ich sinfdagi bolalarga tilni o‘rgatish majburiyat sifatida emas, balki o‘yinli kommunikativ va interaktiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda qiziqarli mashg‘ulot sifatida olib borish ularning kelgusida oladigan bilimlariga poydevor bo‘lishi mumkin. Zero, so‘z mulkining sultonini, buyuk mutafakkir Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Til bilgan – el biladi”.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bakhtiyorovna, S., Qizi, Y. . B., Yuldashevna, Z., Anvarovna, E., Rustamova, Z., & Qizi, Z. (2024). Requirements to improve students’ speaking skills through information technology. *Spast Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5087>
2. Boboqulova M. “ Science and innovation ”. Qo‘qon . 2022.
3. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldasheva, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
4. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
5. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
6. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
7. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
8. Jalolov J. “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi “. Toshkent.

9. Mirzavaliyeva D. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi ". Guliston.
10. Nargiza Yuldasheva, Shakhnoza Choriyeva, Mokhidil Ziyadulloyeva, Dilfuz Shadiyeva and Mamlakat Umirova Role of Harnessing Green Technologies and Innovation for Sustainable Development BIO Web Conf., 141 (2024) 04014 DOI: <https://doi.org/10.1051/bioconf/202414104014> [https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/abs/2024/60/bioconf AgriculturalScience2024 04014/bi/oconf AgriculturalScience2024 04014.html](https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/abs/2024/60/bioconf_AgriculturalScience2024_04014/bi/oconf_AgriculturalScience2024_04014.html)
11. Qurbanaliyeva N. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari ", " Scientific progress ". 2022.
12. Tajibayeva G. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish ". Namangan. 2019.
13. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
14. Vakhobova.F, Musayeva.N, Madaminova.S, Bakhronova.M., Ziyadulloyeva.M, Yuldasheva.N and Ergasheva.S. Linguocultural study of anthroponyms in irrelative languages (on the material of English and Uzbek epics) E3S Web Conf., 420 (2023) 10029 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342010029> [https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/57/e3sconf\\_ebwff2023\\_10029/e3sconf\\_ebwff\\_2023\\_10029.html](https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/57/e3sconf_ebwff2023_10029/e3sconf_ebwff_2023_10029.html)